YTTB O‘zbekistonda o‘g‘it ishlab chiqarishni dekarbonizatsiyalash bo‘yicha pilot loyihani qo‘llab-quvvatlaydi

// 29.08.2024
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/erdb



Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB) qayta tiklanadigan vodorod ishlab chiqarish bo‘yicha tajriba quvvatlarini moliyalashtirish orqali O‘zbekistonda o‘g‘itlar va elektr energiyasi ishlab chiqarishni dekarbonizatsiya qilishga yordam beradi, deb xabar qildi bank matbuot xizmati “Gazeta.uz”.

Ishlab chiqarish quvvati 20 MVt elektroliz uskunasi va 52 MVt quvvatga ega yangi shamol stansiyasidan iborat bo‘ladi.

> Loyiha O‘zbekistonda tabiiy gazdan olingan va ammiakli o‘g‘itlar ishlab chiqarishda keng qo‘llanadigan kulrang vodorodni qayta tiklanadigan vodorod bilan almashtirishga yordam beradi. Ikkinchisi o‘g‘itlar sektorini dekarbonizatsiya qilishning asosiy alternativi sifatida tan olingan, deyiladi xabarda.

Zavod ishga tushirilgach, yiliga 3000 tonnagacha qayta tiklanadigan vodorod ishlab chiqarishi va CO_2 yillik emissiyasini taxminan 22 000 tonnaga kamaytirishi kutilmoqda.

Ushbu quvvat 2022-yilda YTTB Misrda qayta tiklanadigan vodorod ishlab chiqarish zavodini qo‘llab-quvvatlaganidan keyin bank tomonidan moliyalashtiriladigan ikkinchi qayta tiklanadigan vodorod loyihasi bo‘ladi.

> YTTB ACWA Power UKS Green H2 kompaniyasiga obyektni ishlab chiqish, loyihalash, qurish va ishlatish uchun 65 million dollarlik moliyalashtirish paketini taklif qilmoqda. Maxsus tashkil etilgan ushbu kompaniyaga “O‘zkimyosanoat” va ACWA Power (elektr energiyasi va tuzsizlangan suv inshootlarining xalqaro ishlab chiqaruvchisi, investori va operatori) birgalikda egalik qiladi.

Moliyaviy paket YTTB tomonidan taqdim etilgan 55 million dollar miqdoridagi yuqori darajadagi kreditdan, shuningdek, Kanadaning Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishda yuqori ta’sirli hamkorlik bo‘yicha maxsus jamg‘armasi (HIPCA) doirasida taqdim etilgan 10 million dollargacha bo‘lgan imtiyozli moliyalashtirishdan iborat. YTTB, shuningdek, loyiha uchun aksionerlik kapitaliga 5,5 million dollargacha bo‘lgan oraliq kreditni taqdim etishni rejalashtirmoqda.

“YTTB O‘zbekistondagi ushbu muhim qayta tiklanadigan vodorod ishlab chiqarish obyektini bizning uzoq yillik mijozimiz ACWA Power va ularning hamkori „O‘zkimyosanoat“ bilan birgalikda moliyalashdan faxrlanadi. Bu uglerodni ko‘p iste’mol qiladigan va chiqindilarni kamaytirishga erishish qiyin bo‘lgan sanoatga ega Markaziy Osiyodagi birinchi loyiha bo‘ladi”, — dedi YTTBning barqaror infratuzilma bo‘yicha boshqaruvchi direktori Nandita Parshad.

HIPCA Avstriya, Kanada, Finlyandiya, Niderlandiya, Janubiy Koreya, Ispaniya, Shveysariya, Tayvan Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot jamg‘armasi (ICDF), Buyuk Britaniya va AQSh tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi.

Manba: Gazeta.uz, 28.08.2024